

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI

*Kodirova Muyassar Eshmamat qizi*  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*  
*Maktabgacha ta'lim fakulteti o'qituvchisi*  
*Aminova Sevara Furqat qizi*  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*  
*Maktabgacha ta'lim fakulteti*  
*1 bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolaning mazmuni maktabgacha yoshdagi bolalarga psixik maslahatlar va hozirgi kunda qanchalik ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan. Bu maqolada ota onalar uchun ham foydali maslahatlar kiritilgan. Yana maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini o'rganilganlik holati va ularga kerakli maslahatlar, tavsiyalar borasida fikr yuritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va ularning o'rganilganlik sabablari o'rganilib tahlil qilingan va bartaraf etish yo'llari haqida malumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Bola, yosh, psixika, psixik, rivojlanish, ota-ona, psixik taraqqiyot, psixik yordam, shaxsiy rivojlanish, dizayin ko'nikma, malaka xotira, tuyg'u, his, ob'ekt, maktabgacha yosh, munosabat, shaxs, oila, mahalla, faoliyat, motiv.

3-7 yoshgacha bo'lgan davr maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifatlar o'zgarishlarini inobatga olgan holda yani 3 davrga bo'lamiz. 1-davr 3-4 yosh kichik maktabgacha davr hisoblanadi. 4-5 yosh kichik bog'cha yoshi, o'rta maktabgacha davri esa 6-7 yosh hisoblanadi. Maktabgacha davrni katta bog'cha yoshiga ajratishimiz mumkin bo'ladi. Bolalar rivojlanish jarayonida o'tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar bilan alohida munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutiqlarni o'rganib boradi. Bunday predmetlar olamine hamda ular yordamida amalga oshirilgan hatti harakatlar, tilini odamlar orasidagi munosabatni egallab olishi faoliyat mativlarning rivojlanishi qobilyatlarning o'sib borishi katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Bunda biz maktabgacha yoshdagi bolalarga o'mizning milliyligimiz hamda urf – odat ananalarimizni mah o'rgatib borishimiz lozim. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati rivojlana boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish elementar gigitena madaniyati va mehnat malakalarini hosil qilish nutqni o'stirish hamda ijtimoiy axloqiy va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri hisoblanadi. Mashhur pedagoglardan biri Lesgafning fikricha insonni bog'cha yoshdagi davri shunday bir davrki bu davrda

bolada kelgusida qanday hislatlarga ega bo'lishini belgilab beradi. Bog'cha yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ko'p harakatligi va tadqiqotchiligidir. Bola psixikasida tabiatning asosiy qonunlarini shunday ifodalashi mumkin: Bola uzluksiz faoliyati natijasidan emas balki faoliyatning bir xilligidan charchab qoladi. Mana shu so'zlardan bog'cha yoshidagi bola tabiatning asosiy qonuni bo'lmish serharakatligini cheklab qo'ymay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyishtirish kerakligi yaqqol ko'rinib turibdi. Kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq normalari kishilarni anglash shuningdek ijobiy, salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini juda yaxshi rivojlanadi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. O'zi bilgan ertaklarni qaytq qayta eshitish bolada zerikarli tuyila boshlaydi, bola yangiliklar tomon talpina boshlaydi. Chunki ular birxillikdan zerikishadi, ularga yangiliklar qilinsa qiziqishi ham ortadi. Bolalarda yana bir qobiliyat hamma narsani bilishga qiziqishlari ortadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri uning har narsaga qiziqishini yangilik sifatida ko'rib bola har tomonlama bilib olishga intiladi. Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida ularning psixik o'sishida qiziqishlar katta rol o'ynaydi. Qiziqish huddi ehtiyoj kabi bolalarning biron bir faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik xodisa desak bo'ladi. Bola kamol topishi uchun qiziqishni ahamiyati shundaki bola qiziqqon narsanini mumkin qadar kuchlirooq bo'lishga intiladi va binobarin uzoq vaqt shu ish bilan shug'ullanishdan zerikishmaydi. Bu esa bolaning diqqati va irodasini mustahkamlaydi. Biz maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolalarning psixologiyasiga shunday etibor qaratdikki, ular aynan shu davrda o'z qiziqishlari, yetakchi faoliyati bo'lgan syujetli-rolli o'yinlardagi harakatlari bilan birgalikda ijtimoiy dunyoning, avvalo, ota ona oilasidagi rollarga o'zaro munosabatlarga etiborli bo'lib, aynan ota onaga xos qiliqlarni o'zlashtirishga kirishadi. Bolada narsa hodisalar olami ular yordamida amalga oshiriladigan xatti xarakatlar, ona tili va odamlar orasidagi munosabatlarni anglash ayni zamonda faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi kattalarning bevosita yordami asosida amalga oshadi. Bu oilada ota onaning, maktabgacha talim mutaxasislarining va tarbiyachilarning ko'magida yuz beradi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Faoliyatidagi mustaqillik o'z o'zida tafakkurdagi mustaqillikka asos maktabgacha yoshdagi bosqich ularda murakkab harakatni takomillashtirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev maktabgacha ta'lim muassasalari muammolariga bag'ishlangan tadbirda: "Mutaxasis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va malumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shuning dalilini o'z bolalarimizning yetuk barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha

tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekani yaqqol sezilib turadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Ostona hatlab tashqi dunyoga qadam qo'yilganida esa bolaga atrof muhit va jamoatchilikning tasiri sezilarli bo'ladi. Ta'lim muassasalari va mahalla-kuy, umuman, ijtimoiy sfera muhiti inson farzandini to hayotining so'ngi daqiqasigacha ta'qib qilib boradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://president.uz/uz-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti>.
2. Уринтаева Г.А. Детская психология. -М.Академия,2010
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. -М. Педагогика,1982. 4. Поддьяков. Н.Н. Мышление дошкольника -М.Педагогика 1970.
5. Гозиеву Э. Тафаккур психологияси. Т. Укитувчи, 1990
6. Каримова.В.М., Суннатова Р. Мустакил фиклаш- Т., Шарк 2000.